



230100, Nukus shahri, Dosnazarov ko'chasi, 62-uy  
Tel.: 0 (361) 222-24-37, 222-95-20, faks: 222-98-30  
web-site: www.kkedu.uz, e-mail: [mno.rk@exat.uz](mailto:mno.rk@exat.uz)

230100, Nókis qalasi, Dosnazarov kóshesi 62-úy  
Tel.: 0 (361) 222-24-37, 222-95-20, faks: 222-98-30  
web-site: www.kkedu.uz, e-mail: [mno.rk@exat.uz](mailto:mno.rk@exat.uz)

« 15 » Декабрь 2021-y.

№ 01-01/3-5670 « \_\_\_\_\_ »-\_\_\_\_\_ 2021-j.

**O'zbekiston Respublikasi  
telekommunikatsiyalar sohasida  
Nazorat bo'yicha davlat Inspeksiyasining  
Qoraqalpogiston Respublikasi hududiy  
inspeksiyasi boshligi v.v.b  
M.Allambergenovga**

Sizning, 2021 yil 14 dekabrda 42/1223-sonli xatingizga javoban shuni ma'lum qilamizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrda "Raqamli O'zbekiston -2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmonining 2 ilovasi 15.3-bandida belgilangan, umumta'lim maktablar o'quvchilari davomatini nazorat qilishning yagona elektron apparat dasturiy kompleksini joriy qilish va tizimni "Raqamli Qoraqalpog'iston Respublikasi" geoportaliga integratsiya qilish topshirig'i boyicha, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan reja-jadval ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu reja-jadvalga ko'ra, mazkur dasturiy kompleks loyihasini davlat-hususiy sheriklik asosida amalga oshirish nazarda tutilgan hamda bu loyiha uchun moliyalashtirish manbalarini belgilash bo'yicha tegishli vazirlik va idoralarga ko'rsatma berishni va keltirilgan reja-jadvalda ko'rsatilgan muddatlarda ishlarni amalga oshirishni so'rab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga 2021 yil 31 mart sanasi bilan 01-03/2-136-sonli xat chiqarilgan (*reja-jadval va xat ilova qilinadi*).

Hozirda, ushbu loyihani moliyalashtirish masalalari ko'rib chiqilayotgani, loyiha amaliyotga tatbiq etilgach esa, uni "Davlat boshqaruvi" axborot-tahliliy platformasiga integratsiya qilish ishlari amalga oshirilishi haqida bildiramiz.

Bundan tashqari, qayd etilgan Farmonning 2v ilovasining tegishli 12, 13 va 14- bandlaridagi topshiriqlar to'liq bajarilganligi haqida bildiramiz.

*Ilova: elektron ko'rinishda.*

Vazir

R.Reimov

Ijrochi: R.Xudaybergenov  
Tel: 93. 485-17-51

Xalq ta'limi tizimiga oid barcha yangiliklardan quyidagi havolalar orqali xabardor bo'lishingiz mumkin



[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)



[t.me/uzedu](https://t.me/uzedu)



[facebook.com/uzedu](https://facebook.com/uzedu)



[instagram.com/uzedu.uz](https://instagram.com/uzedu.uz)